

G'ARBIY O'ZBEKISTONDAGI O'RTABULOQ MAYDONIDAGI RIF YOTQIZIQLARI TARKIBI VA HOSIL BO'LISHIGA QARAB BOG'LAM(PACHKA) TAVSIFI

Bo'riyev Sardor Sayfullaevich
Qarshi davlat universititi assistenti
(Tel)+99891 455 10 11
burievsardor92@gmail.com

Annotatsiya: Hozirgi paytda ko'pchilik marjon turlarining yoshini yarus va hatto yarus osti qatlamlariga to'g'ri kelishini aniqlash va ularni nafaqat qo'shni kesmalar bilan solishtirish, balki bir-biridan uzoq hududlardagi kesmalar bilan ham taqqoslash imkoni tug'ildi.

Kalit so'zlar: Marjon, Oksford, kimerij, polip, organogenli detrit, kalkarenit jins, oxaktosh, krinoideylar, mshankalar.

DESCRIPTION OF THE LINKAGE(PACHKA) DEPENDING ON THE COMPOSITION AND FORMATION OF REEF DEPOSITS IN THE MIDDLE LANE IN WESTERN UZBEKISTAN

Annotation: At present, it was possible to determine the age of most coral species to coincide with the layers of the yarus and even under the yarus and compare them not only with neighboring cuts, but also with cuts in regions far from each other.

Keywords: Coral, Oxford, chimeric, polyp, organogenic detritus, calcarenite genus, oxactoch, crinoideans, mshankas.

Karbonat formatsiyasidagi yotqiziqlarda turli xil oxaktosh uyumlarini (biogerm, biostrom, rif) hosil qilishda marjonlar muxim o'rin egallaydi. Boshqa organizmlar bilan birgalikda rif oxaktoshlarini hosil qilishda, ularning oksford va kimerij asrida tutgan o'rni alohida ahamiyatga ega. Marjon qoldiqlarini o'rganish asosida hozirgi paytda Buxoro-Xiva regionidagi karbonat rifli formatsiyasining stratigrafik jixatdan bo'limlarga bo'lish va rif yotqiziqlarining yoshini aniqlashga imkon yaratdi.

Shuni ta'kidlash kerakki, yaqin-yaqingacha Janubiy va G'arbiy O'zbekistondagi yuqori yura davri karbonat formatsiyasi yotqiziqlarida uchraydigan marjonlarga biostratigrafik jixatdan uncha ahamiyat berilmas edi. Lekin, ilmiy adabiyotlar tahlili natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, Tetis dengizida rif vujudga kelishi oksford va kimerij asrlariga to'g'ri kelishini ko'rsatdi.

1-bog'lam. Fatsial tahlil natijasida shu narsa ma'lum bo'ldiki, O'rtabuloq maydonidagi 1-bog'lamning hosil bo'lishi, tarkibi va tuzilishiga ko'ra pastki qatlamlardan keskin farq qiladi. Maydonning ba'zi joylarida (9,13,18,24,26,28-quduqlar) marjon poliplarning rivojlanishi uchun qulay sharoit vujudga kelgan. Eng muhimi shundaki, Organik detritli oxaktoshlar uyumini sinik bo'laklar tashkil qilgan bo'lib, orasida ham muhim o'rin egallaydi. Marjon polip qoldiqlari har xil, sinik bo'laklarda 28-quduqdan olingan kern namunalarda ko'plab uchraydi. Bular, asosan organogenli detrit hisoblanib, hajmi 0,1 dan 2m gacha, ba'zan 5 m gacha boradi. Ular

orasidan marjon polip qoldiqlarining siniq bo'laklari topilib, quyidagi avlodlari aniqlandi.


19-quduqda mazkur jins tarkibi davom etadi, biroq ular bir qadar yaxshi navlangandir. Bog'lam qalinligi 30-40 m gacha o'zgarib turadi, marjonlarning keng rivojlangan maydonlarida (28-quduq) u maksimal darajaga yetgan (60m).

2-bog'lam, O'rtabuloq maydonining 18, 24, 28-quduqlarda bog'lam qatlamlari organogen-siniqli va detritli oxaktoshlar ko'rinishidadir. Bu jinslar gohida pelitomorfli va bug'simondir. Jins ushoqlariniig hajmi 0,1 dan 5 km gacha, ular orasida marjonlar ko'p, gastropoda va ikki tabaqali mollyuskalar ham mavjud. Ushoqlar orasida marjonlarning katta qismi ajralib turadi.

26-quduq kesimida quyidagi marjon polip avlodi vakillari aniqlandi: *Microsolena* sp., *Comoseris* sp., *Thecosmilia* sp., *Calomopbylliopsis* sp. Bog'lam yotqiziqlari qalinligi 35 dan 40 metrgacha o'zgarib turadi.

3-bog'lam. 24, 18 - quduq kesimlarida O'rtabuloq maydonining rudit va kalkarenit jinslariga o'xshash organogenli siniq jinslar ko'pdir. Siniq jinslar bir xil kattalikda, ancha yaxshi xillangan, ularning hajmi 2-3 mm ga yetadi. O'rtabuloq maydonining 24, 26, 18 - quduqlarida ular ko'proq, 28-quduqda esa kamroqdir. Marjon polip siniqlaridan quyidagi turlar aniqlangan.

Marjon poliylardan tashqari, bog'lamda gastropodalar, braxiropodalar, krinoideylar, mshankalar va boshqa aniqlab bo'lmaydigan organizm qoldiqlari ham bor. Ular bilan bir qatorda ba'zi qatlamlar orasida tosh yemiruvchilarning izlari ham kuzatilgan (18-quduq). Bog'lamning qalinligi 30-50 m.



Marjonlarning O'rtabuloq maydonlaridagi kesmalarda tarqalishi

4-bog'lam. Bu bog'lam yotqiziqlari organogenli ushoq, detritli va serkesak oxaktoshlardan tashkil topgan. Siniqlarning hajmi asosan 2 mm, ba'zan yirikroqlari (2 sm gacha) ham uchraydi. Kesak (delvaklar) hajmi 0,05-1 sm. Detrit-ignatanli, pelesipod, ostrakoda, foraminifera va boshqa qazilma organizmlardan tashkil topgan. 24-quduqda kript okristali oxaktoshlarning qavat-qavat katlamlari kuzatilgan. Bog'lam qatlamlari juda qo'pol teksturalidir. 26-quduq kesmasidan marjon poliqlar aniqlangan.

Yemiruvchi organizm qoldiqlari ham e'tiborga molikdir mazkur bog'lam 19-quduqda mayda-mayda oxaktoshlar ko'rinishida uchraydi. Bog'lam qalinligi 50-60 m, umuman rif yotqiziqlari qalinligi 160 (9-quduq) - 225 m (24-quduq) orasida o'zgarib turadi.

Mazkur material taxlili shuni ko'rsatadiki, rif yotqiziqlari qatlamini qazish borasida tarkibida biokonstruktiv organizmlari mavjud bo'lgan qoldiqlar katta o'rin tutadi. Ular orasida marjon poliqlar muhim ahamiyatga egadir..

O'rtabuloqning 24 va 28-quduqlarida I hamda II-bog'lam marjonlari, quyi qismida esa III-bog'lam marjonli topilgan; 18-quduqdan II, 26 - quduqdan II -bog'lam marjonlari IV-bog'lamgacha kuzatilgan. Marjonlar dengiz satxigacha yetib, yuvilgan, ushoqlari xillangan, ba'zan dengiz tubiga cho'kkan. Relif esa bora-bora mo'tadillashgan. Organogen siniqlar orasida yemiruvchilar va parmalovchilar qo'nim topgan. Ular biomorf oxaktoshlar tarkibini yana ko'proq buzgan. Rif yotqiziqlarining qavatlanishida marjon poliqlarining soni va sifatining ham ta'siri bor.

O'rtabuloq maydonidagi qatlamlar hosil bo'lishi borasida quyidagi omillar ahamiyatlidir: ba'zi kesimlarda organogen va organogenli ushoq jinslar, boshqalarida esa juda yaxshi ajragan va saralangan jinslar joylashgandir. Shuning uchun O'rtabuloqdan janubga yuraverishda organogen qurilmalarining qalinligi tenglashib borishini kuzatamiz.

Yuqorida bayon etilganlardan malum bo'ladiki, bog'lamlarning ajratilishi qaysidir darajada o'rta oksford kimerij asrida rifogenez jarayonining uzoq-yuluqligini aks ettiradi.

Qirg'oqli - shelf zonasida rif davri taraqqiyotida biomorf marjonli oxaktoshlar yo'qola boradi. Uning o'rniga navbati bilan organogen ushoqli, detritli, serkesak quyuq va mayda donali oxaktoshlar paydo bo'la boshlagan. Karbonatlar borgan sayin quyqali materiallar bilan boyib boradi.

Umuman, kesmalar qurilishi va tarkibini taxlil etganda, rif davrlarini o'z ichiga olgan bog'lamlar sayoz havzalarining differensiyalanishi natijasida paydo bo'lgan. Ular boshqa cho'kindilardan qatlamlarning rangdorligi, kulrang yangi, biomerf, biomorfli ushoq tarkibi bilan farqlanadi.

Oksford asrida marjonlar paydo bo'lishi uchun qulay imkoniyatlar yaratilgan. (Husanov, 1977, 1979; Mirkomolov, Husanov, 1979; Mirkomolov, Husanov, 1930; Husanov, 1987). Marjonlarning stratigrafik joylashishini tahlil etish shuni ko'rsatadiki, marjon poliqlar turkumi bog'lamlari o'rta oksford kimerij yotqizqlaridagi kichik Kavkaz, Qrim va G'arbiy Yevropa turkumlariga tenglashtirish mumkin. Shu asosda aytilish mumkinki, rif yotqiziqlari qatlami o'rta-yuqori oksford va kimerij asri doirasiga to'g'ri keladi. Ular bog'lamlarining qalinligi rif yotqiziqlari bor bo'lgan kesimlarda 150-200 m, depressiyaga uchragan maydonlarda esa bunday yotqiziqlar qalinligi 15-

20 m gacha keskin kamayib ketgan.

Bog‘lamlar ustidagi yotqiziqlar hajmiga ko‘ra XV rif usti gorizontiga to‘g‘ri keladi. Buni hududiy masshtab tekshiruvlarida ko‘pchilik tadqiqotchilar isbotlashgan.

Rif davrida paydo bo‘lgan bog‘lamlar qatlami kulrang, rang-dor kulrang, qavat-qavat, eng asosiysi marjonlardan va suv o‘tlaridan kelib chiqqan oxaktoshlardan iboratdir. Ular orasida dona-dona kesak, onkolit va jelvak holida uchraydiganlari ko‘pchiligini tashkil etadi.

Suv o‘tlarining qoldiqlari ko‘pincha tik va tuxumsimon shaklda, pelitomorf yoxud kristall kalsitning chotishmalaridan iboratdir. Goho bog‘lamdan kesak holdagi oxaktoshlar mustaqil qavatlar holida uchraydi.

Yotqizilarda suv o‘tlaridan tashqari, organogen detritning dona-dona tuzilishga ega bo‘lganlari ham bor. Bundan tashqari braxiopoda parchalari, ikki tabaqali mollyuskalar, ignatanlilar, kichik foraminiferalar va aniqlanishi mushkul bo‘lgan organizmlarni uchratish mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullayev G. G'arbiy va Janubiy O'zbekistonning yuqori yura karbonat shakllanishining stratigrafiyasi va ikki pallali mollyuskalari. Muallif.diss. kand. - geol. - min.fanlar. Dushanbe, 1987, 19 bet.

2. Abetov E. M. Hisorning janubi-g'arbiy shoxlarining yuqori yura karbonat shakllanishi. Nashr. Ilm-fan, Toshkent, 1965, 138 bet.

3. Akramxodjayev A. M., Egamberdiyev M. E. va boshqalar. Janubiy va G'arbiy O'zbekistonning litologiyasi, stratigrafiyasi va neft-gazliligi. Toshkent, 1971, 200 bet.

4. Akramxodjayev A. M., Mirkamalov X. X., Husanov S. T. va boshqalar. neft va gaz konlarini maqsadli qidirish uchun asos sifatida g'arbiy O'zbekiston yura terrigen va karbonat shakllanishining ko'p fazli tolshlari korrelyatsiyasining biostratigrafik asoslanishi. IV ma'ruzalar tezislari. Idoralararo stratigrafik konferentsiya. Ashxobod, 1983 yil. I4-I6 betlar.

5. Akramxodjayev A.M, Mirkamalov X.X. va boshqalar. G'arbiy O'zbekistonning yuqori yura karbonat shakllanishining stratigrafiyasi. Izv. – qaniydi. SSSR fanlar akademiyasi. Ser. - geol. - 1985, № 8. 47-55-betlar.

6. Bo'riev S.S. "G'arbiy o'zbekistonda terrigen yura yotqiziqlarining gazlilik istiqbollari". Journal of new century innovations 38.1 <https://newjournal.org/new/article/view/8897> (2023): 93-96.

7. Bo'riev S.S. "Qatlamni Gidravlik Yorish (Qgy) ni amalga oshirishda qo'llaniladigan agregatlarning bog'lanmasi". International conferences. Vol. 1. No. 1. 2023.

8. Bo'riev S.S. "Kon sharoitida qatlam gidravlik yorilgandan keyin quduqda yuvish ishlarini amalga oshirish bo'yicha ko'rsatmalar". Educational Research in Universal Sciences 2.4 (2023): 582-585.

9. Bo'riev S.S. "Gaz ajratgichning ish prinsipi va tuzilishini o'rganish." Образование наука и инновационные идеи в мире 34.3 <https://newjournal.org/01/article/view/9782> (2023): 163-168.

10. Bo'riev S.S, and Raufov M.M. "Qatlamni sinab ko'rish usullari. qatlamni to'g'ridan-to'g'ri sinab ko'rish usullari. ximoya tizmasi orqali sinash." Образование

наука и инновационные идеи в мире 34.3
<https://newjournal.org/01/article/view/9783> (2023): 169-173.

11. Bo'riev S.S. "Quduq tubi dvigatellari yordamida burg'ilashda quduqni sirkulyatsion tizimidagi bosim yo'qotilishini hisoblash". Образование наука и инновационные идеи в мире 34.3 <https://newjournal.org/01/article/view/9784> (2023): 174-178.

12. Bo'riev S.S. "Kon shroitida qo'llaniladigan qatlamni gidravlik yorish texnikalari va texnologiyalarini qo'llanilish tahlili." Educational Research in Universal Sciences 2.1 (2023): 54-58.

13. Bo'riev S.S. "Qatlamni gidravlik yorishda qo'llaniladigan eritmalar turini asoslash." Journal of new century innovations 11.1 <https://newjournal.org/new/article/view/1321> (2022): 69-75.

14. Bo'riev, S.S, Eshturdiyev T. D. (2024). "Zarafshon-oloy kamari nodir va kamyob metallar ma'danlashuvining metollogeniyasi". Educational Research in Universal Sciences, 3(11), <https://researchweb.uz/index.php/erus/article/view/15> 40-44.